

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVALTCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

SOCIO-HISTORICAL AND LITERARY-AESTHETIC FACTORS OF POETIC IMAGE RENEWAL IN TAVALLO'S WORKS

Rakhmonova Dildora Mirzakarimovna,

Doctor of Philosophy in Philology

Acting Associate Professor of the Uzbek Language and

Literature Department of Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the work of To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo), a leading representative of Uzbek Jadid literature, in the socio-political and cultural context of Turkestan at the beginning of the 20th century. It analyzes Tavallo's life, socio-literary environment, connections with the Jadid movement, press and public activities, and ideological and aesthetic changes in his poetic heritage. Also, the existing confusion in the poet's biography is determined on the basis of archival documents and scientific sources. The research reveals Tavallo's personal life, his contribution to the development of the nation, and the historical and spiritual significance of his literary heritage.

Keywords: Tavallo, Jadidism, Turkestan, poetic heritage, socio-literary environment.

TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOYIY-TARIXIY VA ADABIY-ESTETIK OMILLARI

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Toshkent davlat yuridik universiteti

O'zbek tili va adabiyoti shu'basi dotsenti vazifasini bajaruvchisi

E-mail: dildorarahmonovatsul@gmail.com

<http://www.orcid.org/0000-0002-2410-6075>

Annotatsiya. Maqola XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstida o'zbek jadid adabiyotining yetakchi vakili To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo) ijodini tadqiq etadi. Unda Tavalloning hayoti, ijtimoiy-adabiy muhiti, jadidchilik harakati bilan aloqalari, matbuot va jamoat faoliyati hamda poetik merosidagi g'oyaviy-estetik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir biografiyasidagi mavjud chalkashliklar arxiv hujjatlari va ilmiy manbalar asosida aniqlanadi. Tadqiqot Tavalloning shaxsiy hayoti, millat taraqqiyotiga hissasi va adabiy merosining tarixiy-ma'naviy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Tavallo, jadidchilik, Turkiston, poetik meros, ijtimoiy-adabiy muhit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N25>

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar milliy adabiyot taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Jadidchilik harakati ana shu murakkab tarixiy sharoitda shakllanib, adabiyotni millatni uyg'otish, ma'rifat va ozodlik g'oyalarini targ'ib etish vositasiga aylantirdi. Bu jarayonda jadid adabiyotining yetakchi vakillari ijodida davr talabi, ijtimoiy muhit, siyosiy bosim va shaxsiy taqdir masalalari o'zaro chambarchas bog'lanib ketdi.

O'zbek jadid adabiyoti namoyandalaridan biri Tavallo (To'lagan Xo'jamiyrov) ijodi ham ana shunday murakkab ijtimoiy-tarixiy sharoit mahsuli sifatida shakllangan. Uning poetik merosini to'laqonli anglash uchun nafaqat badiiy shakl va mazmuni, balki ijodkor yashagan muhit, zamon mafkurasi, siyosiy bosimlar va shaxsiy hayot sinovlarini ham tahlil etish zarur. Chunki adabiy asar muallif shaxsiyatidan, ijtimoiy voqelikdan va tarixiy jarayondan ayro holda vujudga kelmaydi.

Mazkur tadqiqotda Tavalloning hayot yo'li, ijtimoiy-adabiy muhiti, jadidchilik harakati bilan uzviy aloqalari, matbuot va jamoat faoliyati hamda uning ijodida yuz bergan g'oyaviy-estetik o'zgarishlar kompleks tarzda o'rganiladi. Shuningdek, shoir biografiyasiga doir mavjud chalkashliklar arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlar asosida aniqlashtiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Tavallo ijodini davr taqozosi, shaxsiy taqdir va badiiy tafakkur evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan talqin qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zero, "...davrlar — zamon deb atalmish cheksiz va adabiy hodisaning o'tkinchi hamda chegaralangan bir bo'lagi, adabiyot esa ana shu o'tkinchi lahzalarni abadiyatga muhrlashni da'vo qiladigan san'at turidir... Adabiyotshunos badiiy asarni ijtimoiy hayotning oddiy nusxasi sanab ish tutsa ham, yoki aksincha, badiiy hodisani davrdan, tuzumdan, ijtimoiy talotumlardan tashqari hisoblab fikr yuritsa ham yanglishib ketishi mumkin"[1].

Tavallo yashab, ijod qilgan ijtimoiy-adabiy muhitni Markaziy Osiyo bilangina cheklash o'rinli emas. Chunki u aksariyat jadidlar kabi Ismoil Gaspirinskiy ilgari surgan g'oyalarga ergashdi, ijodida buni keng yoritdi. Millatni zalolatga boshlagan illatlar va ularni bartaraf etish g'oyasi bilan sug'orilgan asarlar bitdi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, ikkilanish, millatning mustabid hayotdan qutqarishga o'ziga xos yondashuv muayyan muddat "qizillarga yon bosish" ruhida ijod etishga majbur qildi. Bu qarashni uning ayrim mavzulari va obrazlari orqali keyinroq batafsil tahlil qilamiz, hozir esa shoir badiiy-estetik tafakkurining o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy va xususiy omillarni aniqlashga harakat qilamiz.

Muhokama va natijalar. 1. *Murakkab hayot yo'li.* Har bir ijodkorning adabiy merosini chuqurroq o'rganish, tahlil va tadqiq etish uning tarjimai holini ham sinchiklab o'rganishni taqozo etadi. Chunki adabiy asarning yaratilishida, ijodkor tafakkurining evrilishida ijtimoiy hayotdagi voqealar bilan bir qatorda shaxsiy hayotdagi o'zgarishlar, uning ta'sirida bo'ladigan kechinmalar ham muhim ahamiyatga ega. Tavallo nihoyatda alg'ov-dalg'ovli, muttasil safarlar ichida hayot kechirdi, doimiy ravishda ish almashtirishlar, turmushidagi murakkab sinovlar uning dunyoqarashiga, o'z navbatida ijodiga ham ta'sir qilmay qo'ymadi.

To'lagan Xo'jamiyrov 1883-yilda Ko'kcha dahasida Obi nazir mahallasida o'ziga to'q savdogar Xo'jamiyrov Jiyanboyev oilasida tug'ildi. Oilaning yagona zurriyodi bo'lgan To'laganning tarbiyasi va tahsiliga alohida e'tibor qaratildi. Besh yillik eski maktabda Yusuf qori domla qo'lida, keyin "Beklarbegi" madrasasida rus-tuzem maktabida besh sinf tahsil olgan. 1900-yilda Prjevalsk shahriga borib, Usmonbek Solihjonboyevning prikazchigi sifatida ish boshlaydi. Bu vaqt ichida uning til bilimlari va savdogarlik tajribasi yanada ortadi, dunyoqarashi kengayib, jahon xalqlarining turmush tarziga teran nigoh tashlay boshlaydi. Oradan to'qqiz yil o'tgach, otasi olamdan o'tadi va u Toshkentga qaytadi. Shahar savdo shirkatlaridan biriga ish yurituvchilikka qabul qilinadi. Bu orada uylanib, ayoli Zuhra bilan Rahbar, Sanobar, Maqsud, Mahmud ismli farzandlar ko'radi.

“Beklarbegi” madrasasida o‘qib yurgan kezlarda u Yusuf Saryomiy bilan tanishgan hamda uning sevimli shogirdiga aylangan edi. To‘laganning she‘riy mashqlarini kuzatib borgan ustoziga “Tavallo” taxallusini beradi.

Yoshligidanoq so‘z san‘atiga oshufta bo‘lgan To‘lagan Toshkent adabiy muhiti vakillari — Karimbek Kamiy (1865-1922), Fazlulloh Almaiy (1852-1891), Mulla Qo‘shoq Miskin (1880-1937), Xislat (1880-1945), Sidqiy-Xondayliqiy (1884-1934) kabi ijodkorlar bilan ham ustoz-shogird, do‘st tutindi. Ayni shu ijodkorlar Tavalloning adabiy jarayonda o‘z o‘rni, ovozigga ega bo‘lishida hissa qo‘shdi.

Tavalloning ustoziga Yusuf Saryomiy bilan tanishuviga, Saryomiydek zakiy insonga sadoqatli shogirdning muhib bo‘lishiga sababchi Karimbek Kamiy bo‘lgandi. Ustoziga vafotidan so‘ng Tavallo uning she‘rlariga tartib berib, 160 sahifalik “Devoni Mavlaviy Yusuf Saryomiy”ni tuzar ekan, “Ushbu devonning chop qilmog‘im boisi ushbu sohibi devon janob Yusuf Saryomiy ustodimning ruhlari xushnud qilmoqdur” [2] deya maqsadini bayon qiladi:

Edim bu sohibi devona shogird,
Etardim xizmatini az dilu jon.

Otamning nomi Xo‘jamiy erdi,
Banim otim erdi Mirzo To‘lagon.

“Tavallo” deb taxallus lutf birlan,
Janobi ustodim manga qo‘ygon... [2:158]

Shuningdek, “Devon”ga Tavallo qalamiga mansub “Nigorim...” deb boshlanuvchi muxammas kiritilgan. “Ushbu sohibi devon janoblarning bir g‘azallarina shogirdlari Tavallo muxammas etub erdi” deya izoh ham beriladi.

Tavallo millat hayotini yoritishda ijodiy izlanishlar bilangina cheklanib qolmadi. 1914-yil 30-avgustda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Muhammadxon Podshoxo‘jaev, Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li, To‘lagan Xo‘jamiyrov, Saidabdullo Saidkarim o‘g‘li Saidazimboev, Komilbek Norbekov (jami 12 kishi) hamkorlikda Toshkentda “Nashriyot” shirkatini tuzishadi [3: 7-8]. Ushbu shirkat Turkistonda Umumyevropa madaniyati va ma‘rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyishni maqsad qilgan edi. Shirkatning “Ahdnoma”sida ham quyidagilar bayon etiladi:

“1. Biz, yuqorida yozilgan kishilar Turkiston musulmonlari orasig‘a jarida, majalla va kitob kabi matbuot nashr qilib, Ovrupo madaniyatig‘a xalqimizni boshlamoq va aholini oqartmak niyati ila “Nashriyot” nom bir shirkat yasaduk...” [3:8].

“Ahdnoma”da keltirilayotgan ma‘lumotdan yana bir fikrni anglash mumkin: qator ilg‘or jadidlar kabi Tavallo ham so‘ziyu amalini millatni taraqqiy ettirish ishiga yo‘naltirgan edi. Bu yo‘lda na molni, na jonni ayadi. “Ey qo‘lum, pul tutma, millatga yordamlashmasang...” [4:7] tarzidagi satrlari quruq da‘vat emas, balki a‘molning qalamdagi soyasi edi.

Zamondoshi va qadrtoni Sidqiy-Xondayliqiy “Tarix tab‘i kitobi “Ravnaq ul-islom” she‘rida yozadi:

Murodi u na on boshadki, jam‘i siymu zar sozad,
Ki tole‘yor u gashtastu masruri jahon omad.
Saxovatpeshau xushxo‘yu xushfazlu xirad omuz,
Bahimmat misli Hotamtayi mashhuri jahon omad [4:64].

(Ma'nosi: Uning murodi siymu zar yig'ish emas, tole' egasi bo'lish, baxtiyorlik. U saxovatpesha, xushfe'l, xushfazilat, aqllidir. Himmatda Hotamtoy kabi jahonga mashhurdir.)

Tavalloning qizi Rahbar Rasulovning oiladagi saxovatpeshalik borasidagi xotiralari Sidqiy-Xondayliqiyning mazkur misralari ayni haqiqat ekanligini tasdiqlaydi. R.Rasulovning eslashicha, Tavallo xonadonida hamisha ikkita qozonda taom pishirilar, birinchisi oila a'zolari uchun bo'lsa, ikkinchisidan ijod ahli, mahalladagi ehtiyojmand kishilar bahra olar ekan (R.Rasulovning ayrim xotiralari uning nevarasi, Tavalloning evarasi A.Abduvohidov og'zidan yozib olingan – D.R.). Tavallo xayriya ishlariga mablag'ni savdogarlik faoliyatidan topgan. U ming-minglab qo'ylarini Xitoygacha olib borib sotib, u yerdan turli savdo mollari olib kelgan. Daromad qanchalik ulkan bo'lmasin, asosan xayriya ishlariga, millat taraqqiyoti yo'lidagi sa'y-harakatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. 1968-yilni 9-sentyabridagi tergov paytida guvohlik bergan M.Husanboyev so'zlari ham shu fikrga hamohang:

“...bir zamonlar Olim qori degan boyga tegishli uyda Xo'jamyorovning g'ayrat-shijoati bilan kambag'alxona tashkil etilgan. U mahallamizda ochilgan bu uyda kambag'allar va och-yalang'ochlar uchun ovqat berishni tashkil etgan va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan...

1918-yili Xo'jamyorovning tashabbusi va rahbarligida Torko'chadagi mahallamizda birinchi maktab ochilgan. Keyin o'quvchilar sonining ortishi bilan Xo'jamyorov 1924-yilda maktabni sovet hokimiyati tomonidan musodara etilgan uyga ko'chirgan...” Tavallo maktab ko'chirilgan binoning aholi roziligi va mahalla komissiyasi ruxsati bilan olinganidan qanoatlanmaydi: uy egasining merosxo'rlarini topadi, pul to'lab, ularni rozi qiladi.

Ishida unum, oilasida xotirjamlik hukm surgan shu yillar ichida uning ijodi ham, taraqqiyparvarlik faoliyati ham yaxshi davom etadi. 1915-yildan 1919-yilga qadar esa Avloniyalar tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko'rsata boshlaydi, teatr tomoshalarida aktyor sifatida ham ishtirok etadi. Lekin asl kasbi hamda xayriya uchun manba hisoblangan savdogarlikdan uzilib ketmaydi. 1917-yilga qadar mazkur sohada munatazam ishlaydi, do'kondorlik orqasidan foyda ko'rib turadi. Qo'nimsizlik, o'zidan ko'ngli to'lmaslik va turli tazyiqlar kabi ma'naviy qiyinchiliklarga to'la hayoti 1918-yildan boshlanadi. “Jinoiy ishi” da saqlangan “Mehnat daftarchasi”dagi ma'lumotlarga ko'ra, u mazkur yillar davomida turli yumushlar bilan shug'ullangan. Xususan, 1918-1919-yillarda Toshkentning dastlab Eski, so'ng Yangi shahar ijroiya qo'mitalariga a'zolik qildi. 1919-yilda partiyaga kiradi. ChKga xizmatga olingan va 1922-yilgacha Respublika kollegiyasi a'zosi bo'lgan. 1922-1923-yillarda ushbu tashkilotning Eski shahar ijroiya qo'mitasi a'zosi, shikoyatlar byurosi a'zosi, Farg'onarevtribunal a'zosi vazifalarini bajardi. 1924-yildan ichki ishlar va davlat xavfsizlik tizimidan uzoqlashadi, kasaba uyushmasiga o'tadi. Tashsoyuz boshqarmasi a'zosi, 1925-1926-yillarda esa Toshkent sanoat birlashmasi Kustpromsoyuz (Hunarmandchilik sanoati kasaba uyushmasi) raisi bo'lib ishlaydi. 1927-yil 23-oktyabrda matlubot molini ulgurji sotganligi uchun 6500 so'm moliyaviy kamomad aybi bilan partiyadan o'chirilib, besh yillik qamoqqa hukm qilinadi, biroq 1928-yilning 11-yanvarida O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan afv etiladi. Shu yil quruq mevalar omborida tarjimon bo'lib ham ishlaydi. Yil oxiridan 1930-yilning aprelogacha KOO Pstraxsoyuz (Shirkatlar sug'urta uyushmasi)da instruktor, Nonmarkaz instruktori (1930), Shirkatlar uyushmasi noziri (1930) vazifalarini bajaradi. 1931-yilning 15-dekabrida arizasiga ko'ra ishdan bo'shatilib, xomashyo va savdo sektori noziri qilib o'tkazilgan. 1933-yil 1-yanvardan Soyuzzagatxlopok (Ittifoq paxta

tayyorlash) idorasiga yuborilgan. 1933-yil 22-noyabr — O'zpromstroy (O'zbekiston sanoat qurilishi) trestida nazoratchi-instruktor; 1934-yil 15-aprelda arizasiga ko'ra ishdan bo'shatilgan. 1935-yil 29-yanvar — “Красный утильщик” (“Qizil foydamand”) artelida instruktor; 1935-yil 29-mayda arizasiga ko'ra ishdan bo'shatilgan.

Bu kabi qo'nimsizlik, beqarorlik nafaqat Tavalloning taqdirida, ayni paytda mamlakat hayotida ham yuz berayotgan edi. Buning sababini tarixchi olimlarimiz, xususan, R.Shamsutdinov quyidagicha izohlaydi: “1937-yilda “NKVDning 00447-sonli hozirda mashhur bo'lib ketgan “Quloqlar to'g'risida”gi buyrug'i tayyorlangan. Unga ko'ra, 1937-yil 5-avgustdan 1938-yil noyabr o'rtalarigacha maxsus tashkil etilgan “uchlik”lar kamida 800 000 kishini o'n yillik muddatga qamoqqa, ulardan yarmini otuvga hukm qilganlar. 1937-yil avgustidan NKVD milliy operatsiyalar o'tkazish bo'yicha yana bir necha buyruqlar qabul qiladi...”

Ana shu holatdan kelib chiqib 1937-yil 5-avgustdan barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol antisovet elementlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkaziladigan bo'ldi. Bu operatsiya O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRda 1937-yil 10-avgustdan boshlanishi belgilandi... Operatsiyani... to'rt oy muddatda yakunlash ko'rsatib o'tilgan” [5:15-17]. Shuningdek, buyruqqa operatsiyani o'tkazish bo'yicha yetti punktdan iborat yo'riqnoma ham ilova etiladi. “Jazoni o'tab qaytgan va faol antisovet qo'poruvchilik faoliyatini davom ettirayotgan sobiq quloqlar” birinchi navbatda qatag'on qilinishi alohida uqtiriladi [5:16].

Ayni shu talabga To'lagan Xo'jamyorovning “batamom” mos kelganligini qarangki, atigi to'rt kun ichida, ya'ni 1937-yil 14-avgustda “aksilinqilobiy”, “Turon”, “Sho'royi islom”, “Ittihodi taraqqiy”, “Milliy ittihad”, “Milliy istiqloq” tashkilotlarining a'zosi, “millionerning o'g'li”, “she'rlarida millatchilik g'oyalarini ilgari surgan”lik “ayb”lari fosh etilib, qamoqqa olinadi (Bu ayblovlarning barchasi shu qisqa vaqt ichida topilgan emas, bil'aks T.Xo'jamyorovning har bir xatti-harakati ayni shu “tamg'a”larga bog'liq ravishda doimiy nazoratda bo'lgan deyish mumkin). Tegishli tashkilotlarning nazorati ostida tergov tezkorlik bilan va oddiy tartibda olib borildi. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo'limi taqdim qilgan 4544-sonli ish bo'yicha “Xo'jamyorov To'lagan (1883-yili tug'ilgan, Toshkent shahridan, eserlar partiyasi a'zosi, 1919-yili Toshkentda Osipov qo'zg'olonida ishtirok etgan) 1925-yili o'g'irlik va kamomad uchun 5 yil qamoqqa hukm etilgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. “Milliy ittihad” va “Miliy istiqloq” millatchi, aksilinqilobiy tashkilotning a'zosi bo'lib, doimiy ravishda aholi orasida aksilinqilobiy, millatchi targ'ibot olib borganlikda, “Ravnaq ul-islom” nomi ostida o'zi yozgan aksilinqilobiy, millatchi she'rlar o'qiganlikda ayblangan”. Mazkur “Ayblov xulosasi” O'zbekiston Ichki ishlar xalq komissari muovini Leonov tomonidan 1937-yil 9-sentyabrda tayyorlanadi.

Shu yilning 19-oktyabrida NKVD qoshidagi “uchlik” (Apresyan, Yakovlev, Segizboyevdan iborat) majlisidagi 25-bayonnomaga binoan, 20 nafar mahbus otuvga hukm qilinadi. Hayotiga yakun yasash haqida xulosaga kelingan aybdorlar orasida Tavallo ham bor edi.

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchlik” kotibi vazifasini bajargan, Tavallo “ishi”ni ko'rishda bevosita ishtirok etgan Yakov Mixaylovich Yakovlev shunday eslaydi: “Uchlik” har soatda 100ga yaqin ish ko'rgan, hukm esa ikki xil: oliy jazo — otib o'ldirish yoki 10 yil yozishma olib borish cheklangan holda qamoq bo'lgan. Bularning har ikkalasi ham o'lim degani edi. Ishni tekshirish, muhokama qilish degan amaliyot qo'llanilmas edi” [5:22].

“Uchlik”ning vaqtinchalik kotibi vazifasini bajargan P.Blinkovning ta’kidlashicha, bayonnomalardagi mahbuslar ishlarini ko’rib chiqish uchun bir daqiqadan uch daqiqagacha vaqt ajratilgan. Har majlisda 500-600 tagacha ish ko’rib, shuncha odamning taqdiri hal etib yuboraverilgan [6:139].

Mazkur ma’lumotlardan anglashiladiki, Tavalloning hayotiga ham shu tarzda yakun yasaladi. Hukm 1937-yil 10-noyabrda ijro etilgan.

1968-yilning 18-oktyabrida T.Xo’jamiyrov oqlanadi.

Tavalloning avlodlari bugun ham Toshkent shahrida istiqomat qilishadi. Uning farzandlaridan Rahbar Rasulovagina tirik qolgan bo’lib, otasi hayotligida Saidkarim Rasulovga turmushga chiqqan edi. Uning Dilbar va Saida ismli qizlari bo’lgan. 1932-yilda tug’ilgan Dilbar 2007-yilda, Saida esa 2011-yilda vafot etgan.

Tavallo qatag’onga uchrashi muqarrar bo’lib turgan vaqtda R.Rasulova siyosiy ta’qiblardan qutulish maqsadida oilasi bilan Buxoroga ko’chib ketadi. Buxoro shahridagi zardo’zlik fabrikasida ishlaydi. 1970-yillarda ona shahriga qaytib keladi.

Tavalloga daxldor biografik ma’lumotlar bir necha maqola va qo’llanmalarda ham keltirilgan. Shu o’rinda adabiyotshunosligimizda Tavalloning tavalludi bilan bog’liq ayrim ishtibohlarga aniqlik kiritib o’tsak. Jumladan, Po’lotjon Domla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida ikki o’rinda mazkur ijodkor haqida fikr yuritiladi [7:365-366]; [8:604-606]. Dastlab, Yusuf Saryomiy haqida zikr etishda “... mulla Mirza To’lagan Xo’jamiyrov Tavallo ijod ishida” sodiq shogird ekanligi ta’kidlanadi.

Tazkiraning Tavalloga bag’ishlangan qismida “Bu kishi Toshkand shaharidan, jadidizm davrining mashhur arboblardanur. “Turkiston viloyati gazetasi”da elni ilm-ma’rifatga chaqiruvchi navhali she’rlari bosilib turar edi. Sayram qasabasida qozi Bayzo nomli mozorli joyda yashab, 1913-yilda vafot etdi va shul mozor qabristoniga dafn etilgan”.

M.Zokirov esa “Tirik satrlar” kitobida Tavalloning hayotlik davrini quyidagicha belgilaydi: “To’lagan Xo’jamiyrov Tavallo 1872-yilda Toshkentda ziyoli oilasida tug’ildi... 1939-yilda vafot etdi” [9:119-120].

Bizningcha, “Tazkirayi Qayyumiy”da muallif Tavalloning vafoti vaqtini ko’rsatishda biroz chalkashlikka yo’l qo’yadi. Nazarimizda, ustoz Yusuf Saryomiy haqidagi ma’lumotlar shu o’rinda yanglish berib yuborilgan. Chunki Qozi Bayzo mozoriga Saryomiy dafn etilgan edi [10:11]. Biografik ma’lumotdan so’ng “1914-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasi chiqarilganda bu muxammasni demish” tarzidagi izoh bilan Yusuf Saryomiyning:

Bog’lama dunyog’a ko’ngul, mulki moli foniydur,

Kim ko’ngul bog’lar anga, nodonlar nodonidur

matla’li g’azaliga Tavallo bitgan muxammas keltiriladi. Muallif ta’kidlaganidek, Ubaydulla Xo’jaev muharrirligida chop etilgan mazkur gazeta 1914-yildan dunyo yuzini ko’rgan. Mantiqan o’ylab qaralsa, 1913-yilda vafot etgan kishi 1914-yilda, ya’ni gazeta chiqarilayotganda muxammas bita olmaydi. Yoki muallif, yoki noshirlar tomonidan yo’l qo’yilgan juz’iy xatolikni shu tarzda to’g’rilash maqsadga muvofiqdir.

M.Zokirovning “Tirik satrlar” kitobi Tavallo oqlangan 1968-yilda chop etilgan bo’lsa ham, muallifda shoir haqidagi barcha gaplarni oshkora yozish imkoni mavjud emas edi. Shuning uchunmi, Tavallo biografiyasiga oid chalkashliklar, ijodiy jarayonga oid yuzaki fikrlar shoir haqidagi to’liq tasavvurni shakllantirishga xizmat qilmaydi.

Dastavval, uning tavalludini M.Zokirov ko'rsatganidek 1872-yil deb belgilash xususida. Ma'lumki, Tavallo tengdoshlari Sidqiy-Xondayliqiy (1884-1934), Mo'minjon Muhammadjonov (1883-1964) bilan deyarli bir vaqtda madrasa ta'limini olgan. Moddiy jihatdan to'liq ta'minlangan, qolaversa ma'naviy imkoniyatlari ham yetarli To'laganning madrasaga o'n yillar chamasi kech borishi hayotiy mantiqqa biroz zid.

“Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla afandi To'qaevning she'rina tazmin” [4:47-48] asari so'ngida shunday bayt keltiriladi:

Gar Tavallo she'ri Abdulloga yoqsa ne ajab,
Topishurdi oxiratda yosh-yosh ikki yetim.

E'tibor qilinsa, muallif Abdulla To'qay kabi yosh yetim qolganligini ta'kidlamoqda. Uning otasi Xo'jamiyor aka 1909-yilda olamdan o'tgan edi. 1872-yilda tug'ilgan farzand salkam qirqqa yaqinlashgan bo'lsa, “yosh yetim” iborasi biroz nojoiz, bizningcha.

Tavalloning qatag'on etilishi haqida ham muallif so'z yuritmay, “Tavallo 1939-yilda vafot etdi” deyish bilan cheklanadi. Ehtimol, mash'um “katta terror” yillarining avjga mingan nuqtasiga to'g'ri kelganligi uchun ham 1937-yil 10-noyabr sanasi jamoatchilikka ma'lum etilmasligi shart etib qo'yilgan bo'lsa ham ajab emas.

Professorlar B.Qosimov, N.Jabborov, N.Karimov, R.Shamsutdinov o'z tadqiqotlarida T.Xo'jamiyorovni 1883-yilda tug'ilib, 1937-yilda halok bo'lganligini ta'kidlashadi. Bu fikrni DXX arxivida saqlanayotgan “To'lagan Xo'jamiyorov ishi” materiallaridagi raqamlar ham tasdiqlaydi.

1970-yillarda Tavalloning qizi — Rahbar Rasulova bilan muloqotda bo'lgan professor Sharif Yusupovning xotirlashicha (Marhum ustozimiz Sharif Yusupov bilan so'nggi muloqotimiz ayni shu xususda bo'lgan edi. Tavallo she'rlaridan iborat turkumni sobiq “Yosh gvardiya” nashriyotining yillik rejasiga kiritishga muvaffaq bo'lgan Sh.Yusupov to'plamni tayyorlash ishlarini boshlab yuboradi. Bu orada otasining kitobi chop etilayotganidan xabardor bo'lgan R.Rasulova nashriyotga keladi. Keyinroq nashriyot noma'lum sabablarga ko'ra, kitobni rejadan chiqarib tashlagan ekan – R.D.), bu raqamlar haqiqatga muvofiq keladi. Chunki otasi hibsga olinganda 24 yoshda bo'lgan R.Rasulovanning mazkur ma'lumotlarni yaxshi eslashi tabiiy. Qolaversa, u otasi taqdirini aniqlashtirish uchun DXQ idoralariga bir necha bor ariza bilan murojaat qilgan, bunday hujjatlarda esa tug'ilish vaqti aniq ko'rsatilar edi.

Jumladan, otasining “ishi”ni qaytadan ko'rib chiqishlarini so'rab yozgan arizasiga 1968-yilning 24-aprelida O'zSSR prokuraturasidan quyidagi mazmunda javob xati keladi:

“Fuqaro R.Rasulovaga

Sizning Xo'jamiyorov T. “ishi”ni qayta ko'rib chiqish yuzasidan qilgan shikoyatingiz kelib tushdi va o'rganilmoqda. Xulosa haqida Sizga qo'shimcha xabar beramiz.

Ishni tezlatish uchun otangizning tug'ilgan hamda qamoqqa olingan yili yuzasidan aniq ma'lumot taqdim qilishingizni so'raymiz”.

Mazkur ma'lumot va yozishmalardan Tavalloning tavallud-vafot sanasini 1883-1937-yillar deb ko'rsatish o'rinli degan xulosaga kelish mumkin.

Tavallo ilmiy biografiyasini tiklashda adabiyotshunoslikda keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlar ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, B.Qosimovning “Tavallo” [11:307-316], “Vatan va millatning o'tlig' kuychisi” [12], N.Karimovning “Tavallo haqida so'z” [13:3-14], N.Jabborovning “Millatga jonlar fido...” [14] va ushbu satrlar muallifining shoir ijodiga oid qator maqolalari shunga xizmat qilishi jihatidan ham ahamiyatlidir.

2. *Ijtimoiy-tarixiy sharoit* XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlaridagi adabiyotni butunlay o'zgartirib yubordi. Bu davrda birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlandi. Millatni yoppasiga g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Adabiyot ma'rifatparvarlar tomonidan jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirilgan bo'lsa, jadid namoyondalari tomonidan fikriy g'aflat bilan birga mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirildi. Millatni uyg'otishni maqsad qilgan jadid adiblari, jumladan Tavallo ham "yangi mavzularni yangi obrazlar orqali... ifodalashga urindi" [15:183]. Badiiy asarlar orqali fikr aytishga ehtiyoj kuchaydi. "Jadidlar ko'p asrlik o'zbek she'riyatini kuydan da'vatga aylantirdilar" [15:184].

Mustamlakachilik sharoiti, ruslar tomonidan millatning kamsitilishi, majburiy ravishda savodsizlikni paydo qilayotgan omillar Tavallo ijodida alohida obraz, mavzu sifatida shakllandi.

An'anaviy adabiyotda mavjud ishq obrazi Tavallo tomonidan mutlaqo yangicha talqinda olib kirildi. Ijodining boshlanish pallalarida oshiq tilidan:

Qachonkim, g'am yukin solding, boshing'a qad kamon o'ldum,

Raqibim birla yurding, rashkdin men shul zamon o'ldum,

Netay qon yig'lamay, arzim deyolmay bezabon o'ldum,

Bahori orazingdin to judo o'ldum, xazon o'ldum,

Visoling ko'rguzub, ey boisi amnu amonim, kel,

kabi satrlar bitgan ijodkor so'ngroq ma'shuqa obrazini Millat, Vatan tushunchalariga almashtirdi:

Soch oqarsa, qayg'u millatda, yoronlar, shodman,

Tomsa tinmay yoshlarim o'rnig'a qonlar shodman,

Hasrati millat uchun qilsam fig'onlar shodman,

Ukkudek tutsam xarobotda makonlar shodman,

Chiq ichimdan, jonim, ey san manga hamdamlashmasang.

Shu o'rinda xolislik bilan ta'kidlash o'rinliki, ijtimoiy-tarixiy voqealar fonida Tavallo ijodida avvalgi motivlarga zid ravishda Oqposhsho va uning siyosati, Birinchi jahon urushi, mardikorlikka olish voqealari, Oktyabr inqilobini olqishlov ruhidagi she'rlarni ham uchratish mumkin.

Siza yangi hukumat bas, musallam taxtga miningiz,

Adolat masnadida bir Xudo pushti panohingiz,

Zumurrad, la'l, yoqut toj bosh uzra kulohingiz,

Hamisha sidqi ixlos ila bizlar uzrxohingiz,

Tavallo ayladik dargohi Haqq'a biz musulmonlar,

Vatanga hamwatanmiz deb biling emdi, slavyanlar,

deya 1914-1918-yillarda davom etgan Birinchi jahon urushidagi Rossiya imperiyasi ishtiroki, Oqposhsho siyosatini olqishlaydi.

Ismoil Gaspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi rus siyosati bilan murosani afzal bilgan Tavallo har qanday yo'l bilan bo'lsa ham ma'rifatga erishish, aynan ilmu ziyo vositasida erkinlik, haq-huquqni qo'lga kiritishni rejalashtirgan edi. Qonxo'r va mahalliy aholidan nafratlanuvchi amaldorlardan farqli ravishda Turkistonni nisbatan yaxshi biluvchi A. N. Kuropatkinning general-gubernator etib tayinlanishi mardikorlik voqealari fonida rus hukumatining yon

berishini anglatar edi. Bu o'zgarishlar esa Tavalloga o'zgacha umid baxsh etdi va A. N. Kuropatkinga qarata:

Xush kelibsiz shahrimizga, ey ulug' oliy maqom,
Siz adolat taxti uzra o'ltiring, bizdir g'ulom.

Taxti davlat, taxti izzat, fathi nusrat biz tilab
Uxlamasmiz yolborib, avlod bizlar subhu shom,

tarzida she'r bitdi. U endi mustamlakachilik siyosati o'zgarishiga qattiq ishongan edi. Bu tarzdagi ishonchning paydo bo'lishida "Turkiston viloyatining gazetasi" bosh muharriri N. P. Ostroumov ta'sirini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

3. Davr taqozosi bilan dunyo yuzini ko'rgan gazeta va jurnallar, ular atrofida muhit ham Tavallo ijodiga ta'sir etganligini tahlil qilish o'rinli. Ayniqsa, Toshkentda 1870-yildan chop etila boshlangan "Turkiston viloyatining gazetasi" mahalliy tilda chiqqan birinchi matbuot namunasi bo'libgina qolmay, Oqqoshshoning tashviqot quroli sifatida xizmat qilganligi ko'plab adabiyotlarda qayd etiladi. "Gazetada Sh.Ibrohimov (1872), H.Chanishhev (1881) kabi yerli tatarlar, I.Xudoyorxonov (1893) singari o'zbeklar ma'lum muddat muharrirlik qilgan bo'lsalar-da, uning asl egasi, yo'riqchisi N.Ostroumov edi. Shunga ko'ra uning milliy gazeta bo'lishi imkondan tashqarida edi" [16:209]. Shuningdek, N.Ostroumov mahalliy ijodkorlarning ko'pchiligiga Chor hukumatiga manzur mavzularda ijod qilish yuzasidan "topshiriq"lar berar, shu orqaligina gazetaga chiqish imkoniyati tug'ilar edi. Faol mualliflar "buyurtma"ni bajarish barobarida kundalik hayotdagi muammolarni "Turkiston viloyatining gazetasi" orqali aytish "huquqi"ni ham qo'lga kiritishar edi. Bu imkoniyatni, tabiiyki, To'lagan Xo'jamiyrov ham boy bermadi. 1914-1916-yillar oralig'ida "Turkiston viloyatining gazetasi"da uning o'ndan ziyod publitsistik maqolalari va oltita she'ri chop etildi.

"Gazeta Turkiston maishiy hayotining turli mavzulariga bag'ishlangan asarlarni ko'proq nashr etishga harakat qildi, – deb yozadi A.Jalolov. – Lekin qizig'i shundaki, gazeta Rossiyaga, "oq poshsho"ga, uning siyosatiga, Turkistondagi rus ma'murlariga "tariqcha dog" tushuradigan, ularning obro'sini to'kadigan har bir asarni "ming chig'irig"dan o'tkazar, bosmas, hatto ularni yozgan ijodkorlarni ta'qib ostiga olar, tuhmat, bo'htonlar uyushtirar edi. Biz "Turkiston viloyatining gazetasi"ni sinchiklab tahlil qilish natijasida shunga ishonch hosil qildikki, uning sahifalarida Rossiyaga, uning Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga zid bo'lgan, hatto unga imo-ishora bo'lgan biror maqola yoki she'rni, materialni, hatto biron kichkinagina bo'lsa-da, ma'lumotni nashr etilganligini uchratmadik"[17]. Birinchi burjua inqilobi arafalarida uning adabiy mundariyasi biroz kengaydi, sahifalarida ma'rifatparvarlikka, ilm-fanga, badiiy adabiyotga oid maqolalar, she'rlar ko'proq chop etila boshlandi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Birinchidan, N.P.Ostroumov Turkiston ziyolilarini o'z atrofida jamlab, ularning "jilov"larini qo'lga olmoqchi bo'ldi. Ikkinchidan, ular orqali Rossiya siyosatini Turkistonga yanada kengroq yoyishga intildi. Uchinchidan, xalq orasida gazetaning shuhratini oshirishga intildi. Birinchi jahon urushi davrida Turkistonda chop etilayotgan gazeta va jurnallarning ham yo'nalishi o'zgardi. Vaqtli matbuotga va davr adabiyotiga urush mavzusi kirib keldi. N.Ostroumov Rossiyaga zafarlar tilagan, "oq poshsho"ni maqtagan, ulug'lagan asarlarni yozish uchun o'zbek ijodkorlariga "buyurtma"lar berdi.

Natijada o'zbek adabiyotida bir qator "buyurtma" she'rlar turkumi paydo bo'ldi. "Buyurtma" asarlarning saviyasi badiiy jihatdan nihoyatda past bo'lib, ular asosan oddiy qofiyalashtirilgan so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan edi.

Bunday she'rlarni yozgan shoirlar, birinchidan o'zlari yaxshi bilmagan mavzuni qalamga olganliklari uchun ham ular o'ta jo'n, badiiylikdan yiroq bo'lib chiqqan, ikkinchidan, ijodkorlar bu "buyurtma"larni o'zlari istamagan holda yozganliklari uchun ham ular o'ta nursiz yaratilgan.

Millatga so'z aytish minbaridan:

Kel, Tavallo, sen haqiqat so'zni yoz, yoshurmay hech,

Zoe' o'lmas millata har qancha xidmatlar darig',

kabi shiorlarni ayta olgan shoir ijtimoiy, siyosiy, tarixiy sharoit talabi bilan bag'ishlov she'rlar bitdi. Chor hukumati mahalliy xalqdan majburan front orqasida ishlash uchun mardikorlikka yigitlar olayotgan bir vaqtda Tavallo Turkiston xalqlarini mardikorlikka borishga da'vat qilgan bir qator she'rlar ham yaratdi.

Bu kabi satrlar Turkistondagi mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoit hamda ijodkorning o'sha paytdagi tafakkuri mahsuli ekanligi, badiiyat mezonlariga binoan uning tanlovini to'g'ri-noto'g'riga ajratishdan ko'ra poetik mahoratiga baho berish o'rinli deb hisobladik. Chunki ijodkor ham barcha kabi haqiqatga munozaralar, ikkilanishlar, kashf etishlar asnosida yetishishi, bu jarayonda insonga xos tarzda kutilmagan yo'l tutishi mumkin.

DXX arxivida saqlanayotgan "To'lagan Xo'jamiyrov ishi" materiallaridagi guvohlik materiallarida qayd etilishicha, Tavallo yig'inlardan birida: "O'zbek xalqi ahil bo'lmagani, qo'rzoqligi orqasida "qizil" qullikka tushib, sharmandali bir ahvolda qoldi... Agar inqilob bizni shunday ahvolga olib kelishini bilganimda men boshim bilan unga qarshi kurashgan bo'lar edim..." deydi. Mazkur iqtibos ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Tavallo ijodining mazmun-mundariyasi vaqti-vaqti bilan o'zgarib borganligi tarixiy-siyosiy sharoit, unga bog'liq ravishda dunyoqarashidagi evrilishlar, haqiqatni kashf etish bilan izohlanadi.

Ijodining dastlabki yillarida Sharq she'riyatining mumtoz janrlarida qalam tebratgan bo'lsa-da, "ishqi ilohiy" yoxud "ishqi majoziy" uning asarlarida yetakchi mavzu bo'lmadi. Shuning uchunmi XIX asr oxiri XX asr boshlarida an'ana tusini olgan bayoz tuzish ishlarida Tavallo asarlariga deyarli murojaat qilinmadi (ma'rifiy she'rlar jamlangan "Sabzazor" bayozi bundan mustasno). Buni uning iqtidoriga shubha emas, aksincha bayozlar tematikasi bilan bog'liq holat sifatida talqin etish o'rinli.

Tavallo asarlarini jamlash 1914-yilda tuzilgan "Sabzazor" bayozidan boshlangan. Oradan ikki yil o'tib shoir o'z she'rlarini "Ravnaq ul-islom" nomi ostida to'plab, chop ettiradi. Ijtimoiy-tarixiy hodisalarning Tavallo ijodiga ta'sirini mazkur to'plam mundarijasidan ham ko'rish mumkinki, to'plamdagi she'rning aksariyati muayyan voqea-hodisaga bag'ishlangan, xususan, 31 tasi millat, milliyat masalasida; maorif, maktab mavzusidagi she'rlar 7 ta, zamon va u bilan bog'liq yangiliklar xususida 5 ta, matbuot va teatrba bag'ishlangan she'rlar to'rttadan 8 ta, taraqqiyotga chorlov ruhidagi asarlar 3 ta, diniy mavzudagi she'rlar 2 ta, marsiyalar 3 tani tashkil etadi. Shuningdek, hurriyat, Vatan, to'yu aza, savdogarlik borasida qalam tebratilgan asarlar ham uchraydi.

Adabiy jarayon bilan bir qatorda ijtimoiy hayotda ham faol bo'lgan Tavallo har bir voqeaga o'z yondashuvini she'r va maqolalari orqali vaqtli matbuot sahifalarida ko'rsatib bordi. Ya'ni davr maydonidagi o'zgarishlar uni yangi-yangi mavzularga qo'l urishga undadi. Ayniqsa,

1914-1917-yillar davomida Tavallo sermahsul ijod qildi. “Tarjumon”, “Turkiston viloyatining gazetisi”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Samarqand”, “Najot” kabi ro‘znomalar, “Oyna”, “Al-Isloh”, “Al-Izoh” jurnallarida To‘lagan Xo‘jamiyrov imzosi bilan bahs qo‘zg‘agan maqolalar, badiiyat namunalari e‘lon qilindi. 1924-1930-yillar oralig‘ida esa “Mushtum” jurnalining faol muallifiga aylandi.

Biografik ma‘lumotlaridan anglashiladiki, Tavallo 1913-yildan boshlab ijod borasida yanada faollashdi. Bu uning milliy matbuotdagi yangi nashrlar bilan ijodiy hamkorligi hosilasi bo‘lishi mumkin.

Biz Tavallo she‘riyatida poetik obraz evrilishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, bevosita “...muallifga ta‘sir etgan, uning sig‘ingan haqiqatlarini shakllantirgan turli hayotiy va siyosiy omillarni, asarning yozilishiga sabab va material bo‘lgan manbalarni va ularning talqinidagi mantiqni” aniqlashga urindik.

4. Ovro‘po madaniyatining ta‘siri. Tavallo adabiy merosining shakllanishida mazkur omilni e‘tirof etish o‘rinli bo‘ladi. Chunki Ovro‘pocha hayot tarzi, ilm-fan taraqqiyotiga intilish Tavallo asarlarining asosiy mavzulariga aylandi. G‘oyani ifoda etish asnosida o‘ziga xos o‘zlashma leksika ham paydo bo‘ldiki, bu ham poetik obraz evrilishi yo‘lidagi urinishlar edi.

Toshkandning fayzi asosi tamosho bog‘ida,

Ne go‘zallar sayr etarlar, boqsangiz har yog‘ida, –

deydi Tavallo. Bu orqali istirohat bog‘lari (park)ning xalq hayotiga ta‘sir etishi, mahalliy aholining bu kabi jamoat maskanlarida o‘zini nomunosib tutishi orqali madaniyatsizligi, bilimsizligini ko‘rsatayotganidan afsuslanadi. Yoxud:

Dedim: “Ahvolingizga Yovrupo, Amriko, Masqovlar,

Taajib aylayub, hech kulmag‘on totor, yo‘x, yo‘x, yo‘x”, deya millatdoshlariga yuzlanadi. Ya‘ni jahon ayvonida biz kabi “afgor” yo‘q, bu holdan qutulish uchun munosiblardan ibrat olaylik, degan chaqiriqni asarlariga joylaydi. Bu chorlov “Olamga bir nazar” g‘azalida yanada alohida ta‘kid ohangiga ega bo‘ladi. Ovro‘poda odatiy voqealar, kundalik buyumlar safidan o‘rin olib bo‘lgan “simsiz” so‘zlashish (telefon), “zambarak”, bitta igna bilan “ming navo” taratuvchi “g‘romofun”, odamni ko‘kda parvoz qildiruvchi “ayruplon”ni namuna qilib keltiradi.

Ilm-fanga ishtiyoqmandlikda Ovro‘podan o‘rnak olishga chaqiradi:

Ko‘r, Yovro‘po ahli nedan, tinmay o‘qurlar ilmu fan,

Ko‘krak ochuq, sizlar chafan, inson bo‘lolmaysiz hanuz.

Millat kelajagi bo‘lgan yoshlarga qarata:

Bizlarni Yovrupoda yurguzmayur piyoda,

Ko‘krak ochuq yaqoda o‘tmasun oy-yilingiz, – deya ogohlantiradi.

“Yovrupolilar hunari birlan bizlarni(ng) hunarimizning farqi” nomli g‘azalida Turkiston farzandlarining orqada qolishiga sabab bo‘layotgan illatlar va ularning oqibatlarini qarshilantirish san‘ati orqali ta‘riflab beradi. Xususan, “zanburak”ka “sobqon”, “aftomobil”ga “Ho‘qand arava”, “ayropilonu gidropilon”ga “varvarak”, “zobut tovari”ga “bo‘yra, bordon”... Mana shular bugungi Turkistonning “kuchi-qudrati”, ilmsizlik sabab tushgan ahvoli...

“Boshqa millatlar va biz” sarlavhali g‘azalida esa “tarki Vatan aylab” Ovro‘poga borishga, “jahon millatlari” kabi “turluk fununlar”ni o‘qish orqali “rivoji millat”ga erishish mumkinligini bayon etadi.

Ovro‘poga intilish, uni namuna sifatida ko‘rish orqali Tavallo yoshlarga “Yovro‘po ilmiga rag‘bat qilish” aksar muammolarning ildizi bo‘lgan ilmsizlik dardiga chora ekanligini

ko'rsatmoqchi bo'ladi. "Uyonmaz ersa millat..." g'azalidagi "Ko'tar boshingni qayril Yovro'po ilmiga rag'bat qil" misrasi ham fikrimizga hamohangdir.

Yovro'poni ko'klarga olib chiqqan ilm-fandir, degan xulosaga kelgan shoir:

Riyozat chekmayin ilm fununni yaxshi o'rganub,

Ko'r emdi Yovruponi, sayr aylar osmon, do'stum, – deydi.

Agar tafakkur qilmasak, atrofimizdagi voqealardan ibrat olmasak, Ovro'po kezganning ham foydasi yo'q. Chunki ibrat olish kishiga rag'bat beradi, hayotiy maqsadlarini mustahkamlaydi. Agar ong bunday islohgga tayyor bo'lmasa-chi? Unda Yovrupo yoxud undan narini ham kezgandan foyda yo'q, degan xulosaga keladi shoir:

Qo'shnimizdin ibrat olmas ersamiz bizlarga bil,

G'arbdin mashriqni kezman Yovrupolardin na sud?

Mazkur bayt mazmunan Hazrat Navoiyning:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sango farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq,

qit'asini yodga soladi. Bu esa Tavallo ijodi shakl jihatidan zamonga moslashsa-da, asriy mavzularni ifodalashda mumtoz adabiyotdan oziqlanishini ko'rsatadi.

5. Turk-tatar adabiyoti ta'siri. Bu ta'sir adabiyotdagina aks etmadi. Munavvarqori Abdurashidxonov ta'biri bilan aytganda, rivojlanish uchun "o'zimizdan boshqa mutaraqiy mamlakatlarga" qarash kerak. "Ular aynan kim?" degan savolga esa: "Misli ustimizga hokim bo'lub turg'on ruslarga, turklarga, nemislarga, frantsuzlarga, yahudiylarga va boshqalarga, ko'b uzoq ketmayluk, eng yaqin qo'shnilarimiz bo'lg'on Qofqoz musulmonlarig'a" javobini olamiz. Darhaqiqat, ular noshirlik, matbuot, teatr va maorif, yana boshqa ko'plab sohalarda ancha ilgarilab ketishgan edi. Ularga havas esa, tabiiyki, adabiy aloqalarda ham aks etdi. Tavallo ijodida nafaqat mavzu jihatidan, balki ifoda shakli jihatidan ham bu ta'sir yaqqol sezilgan davrlar bo'ldi. Buni Ismoilbek Gaspirali, Abdulla To'qay kabi figuralar ta'siri sifatida izohlash mumkin. Ismoilbek "Tarjumon" gazetasi orqali qo'zg'agan mavzular: maktab, ilmsizlik, xalqning maorifga intilmasligi muammosi kabilar Tavallo ijodida ham aks eta bordi. Shoir Ismoilbekni ijodiy evrilishlarni boshidan o'tkazgunga qadar o'ziga ma'naviy peshvo deb bilganini vafoti munosabati bilan yozilgan:

Yig'la, millat, qon to'kub, aylab navolar yig'lagil,

Ismoilbek haqqida qilg'il duolar, yig'lagil,

matla'li g'azali hamda "Tarjumon" g'azitasin noshir va muharriri mutavaffiy Ismoilbek G'asfirinskiy janoblarining tarix vafoti" nomli muxammasidagi she'riy san'atlardan ham ko'rish mumkin:

Doxil o'l jannatga, ey, islom elini rahbari,

San eding olam aro millatni bul sardaftari,

Yosh to'kub, aylar duo, bu kun hama yoshu qari,

Chorlasunlar deb sani ikki jahon payg'ambari,

Kel beri, deb qo'l tutub, onda ko'rsatsun jamol.

"Arsai olamda yakto", "duri noyob", "adiblar sarvari", "saodat yulduzi" Ismoilbek olg'a surgan g'oyalar ham Tavallo ijodida yaqqol ko'zga tashlandi.

Tatar adabiyotining yetuk namoyondasi Abdulla To‘qay g‘oyaviy-estetik jihatdan jadid davri adabiyotiga katta ta‘sir o‘tkazdi. Uning tatar xalqi ozodligi, milliy yuksalish orzusi haqidagi she‘rlariga o‘xshatmalarni, adabiy ta‘sirini Tavallo kabi Hamza, Elbek, So‘fizoda, Cho‘lpon ijodida kuzatish mumkin.

Abdulla To‘qay vafotining bir yilligi munosabati bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 22-aprel, 4-sonida ham chop etilgan “Totor qardoshlarimizning mashhur shoir marhum Abdulla afandi To‘qayevning she‘rina tazmin” g‘azalida Tavallo shunday deydi:

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid millatim,
San salomat, man farog‘at, illatingdur illatim.

Marhum Abdullo To‘qaydek yosh chog‘imda ketmasam,
Ojizona shoiring bo‘lmoqg‘a vordur niyyatim.

Turk-tatar adabiyotining Tavallo ijodiga ta‘sirini ijodiy leksikasi orqali ham kuzatish mumkin. “bermoq” fe‘li uning ko‘pgina she‘rlarida “vermoq” tarzida, “bor” so‘zi “vor” shaklida, “yo‘q” so‘zi “yo‘x” shaklida, “juda” so‘zi o‘rnida “cho‘x” shakli qo‘llaniladi: “Quloq vermaz chiqorub vermasak biz poramiz, yo rab”, “Suv verub ko‘ngil bog‘ini sabzavor aylar gazet”, “Gazet birlan xabar verdi yozib takror, yo‘x, yo‘x, yo‘x”, “Ayla bovar, cho‘x munavvar yog‘di go‘yo to‘ldi nur” kabi misollarni ko‘plab uchratish mumkin.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Tavalloning hayot yo‘li, ijtimoiy faolligi va badiiy merosi davrning keskin siyosiy o‘zgarishlari, mustamlakachilik siyosati, jadidchilik g‘oyalari hamda keyinchalik sovet mafkurasi ta‘siri ostida shakllangan. Bu holat uning ijodida g‘oyaviy izlanishlar, qarama-qarshi motivlar va estetik o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Tavallo dastlab an‘anaviy ishqiy lirika doirasida qalam tebratgan bo‘lsa-da, ijtimoiy-tarixiy sharoit ta‘sirida millat, vatan, ozodlik va taraqqiyot masalalarini badiiy ifodalashga o‘tadi. Uning asarlarida jadidchilik ruhiga xos ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan bir qatorda muayyan davrlarda hukmron siyosiy tuzumga moslashuv unsurlari ham kuzatiladi. Biroq bu holatni ijodkorning e‘tiqoddan chekinishi sifatida emas, balki davr taqozosi va o‘zini saqlab qolish instinkti bilan bog‘liq omil sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Tavallo merosi jadid adabiyotining g‘oyaviy izlanishlari, estetik yangilanishi va milliy ong shakllanish jarayonini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning hayoti va ijodini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish o‘zbek adabiyotshunosligida jadidchilik fenomenini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Қосимов Б., Йўлдошев Қ. Истиқлол адабиётшунослигининг ўн йили//ЎЗМУ хабарлари, 2001 йил, 2-сон.
2. Сарёмий, Мавлавий Юсуф. Девон/Нашрга тайёрловчи: Мирзо Тўлаган Тавалло. — Тошкент. О.А.Порцев типографияси, ҳижрий 1332 (1914).
3. Тавалло. Равнақ ул-ислом (нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Б.Қосимов). — Т.: Фан, 1993.
4. Тавалло. Равнақ ул-ислом. ЎЗР ФА ШИ фондида №12736 инвентар рақами остида сақланаётган манба. – Т.:Ғуломия, 1916.
5. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август — 5 ноябрь). — Т.: Шарқ, 2007.
6. Қиличев Ф. Зулматдан садолар. – Т.: Адолат, 1994.

7. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилд.-Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёти, 1998, II жилд, 365–366-бетлар;
8. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилд.-Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёти, 1998, III жилд, 604–606-бетлар.
9. Тирик сатрлар: Танланган шеърлар/Тўпловчи: М.Зокиров; Муҳаррир: О.Шарафиддинов. — Т.:Ф.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.
10. Сарёмий Юсуф. Танланган асарлар//Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифлари: Б. Қосимов, М.Тожибоева/ —Т.: “Маънавият”, 2002.
11. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: “Маънавият”, 2002.
12. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2003 йил, №49.
13. Тавалло ҳақида сўз // Тавалло. Миллата жонлар фидо (назм ва наср). – Т., 2013.
14. Моҳият. — Тошкент, 2004, №18.
15. Йўлдошев Қ. Янги ўзбек адабиёти: илдизлар, белгилар, босқичлар ва атама. // Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
16. Қосимов Б., Юсупов Ш. , Долимов У., ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги, Т.: Маънавият, 2004.
17. Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири ва XX аср бошлари) филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Т., 1994, 23–24-бетлар.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).